

## TERRORIZM VA EKSTREMIZGA QARSHI KURASHUVCHI MINTAQAVIY TASHKILOTLAR FAOLIYATI VA HUQUQIY ASOSLARI

*O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi*  
*“Qiyosiy dinshunoslik” yo‘nalishi*  
*2-bosqich magistranti: A.Mustafoyev*  
*Ilmiy rahbar: t.f.n., dots. E.Ibragimov*

Mintaqaviy tashkilotlarning terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashdagi faoliyati, mintaqadagi davlatlarning o‘zaro hamkorlik masalalari ushbu mintaqadagi xavfsizlikni ta‘minlashda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Chunki ma‘lumki, terrorizm va ekstremizm kabi jinoyatlar nafaqat bitta davlat hududida sodir etilishi, balki bir vaqtning o‘zida bir nechta davlatni qamrab olishi mumkin. Bugungi kunda Mustaqil Davlatlar Hamdostligi (MDH), Shanxay Hamkorlik Tashkiloti (ShHT), Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (YXHT), Yevropa Ittifoqi (YI), Arab mamlakatlari ligasi (AML), Amerika davlatlari tashkiloti (ADT), Islom Hamkorlik Tashkiloti (IHT) Afrika birligi tashkiloti (ABT), kabi mintaqaviy tashkilotlarda terrorizm va ekstremizmga qarshi kurash bo‘yicha qator hamkorliklar amalga oshirilib kelmoqda.

**Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi.** 1991-yil 8-dekabrda tashkil topgan MDHga a‘zo davlatlar doirasida terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashning asosiy shakllari 2005-yil 26-avgustdagi **“MDHga a‘zo davlatlarning terrorizm va ekstremizmning boshqa zo‘ravonlik ko‘rinishlariga qarshi kurashda hamkorligi konsepsiyasi to‘g‘risida”**gi qarorida belgilangan bo‘lib, ular quyidagilardan iborat:

- terrorizmning oldini olish va unga chek qo‘yishga qaratilgan muvofiqlashtirilgan qo‘shma profilaktika tadbirlarini ishlab chiqish;
- birgalikda tezkor-qidiruv tadbirlari, tergov harakatlari va terrorizmga qarshi o‘quv mashqlarini muvofiqlashtirish;
- terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashish sohasida axborot almashish, ixtisoslashtirilgan ma‘lumotlar banklarini yaratish;
- MDHga a‘zo davlatlarning milliy qonunchiligiga muvofiq terroristik va ekstremistik xarakterdagi jinoyatlarni sodir etganlik, shuningdek terrorizmni moliyalashtirish uchun qidiruvda bo‘lgan shaxslarga oid ishlarda o‘zaro huquqiy yordam ko‘rsatish va ekstraditsiya qilish;
- terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashish sohasida kadrlar tayyorlash borasida tajriba almashish, hamkorlikda ilmiy tadqiqotlar olib borish.<sup>1</sup>

<sup>1</sup> Решение о концепции сотрудничества государств - участников СНГ в борьбе с терроризмом и иными насильственными проявлениями экстремизма от 26.08.2005 г

Shuningdek, 1999-yil 4-iyundagi “MDHga a’zo davlatlarning terrorizmga qarshi kurashda hamkorligi to’g’risida”gi bitimiga muvofiq terrorizmga qarshi kurash sohasidagi hamkorlik quyidagicha amalga oshiriladi:

- texnologik va ekologik xavfli obyektlarni jismoniy himoya qilish tizimlarining holatini baholashda yordam berish;
- ushbu tizimni takomillashtirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- normativ-huquqiy hujjatlar va ularni qo’llash amaliyoti bo’yicha materiallar bilan almashish;
- manfaatdor tomonlarning kelishuvi bo’yicha terrorchilik harakatlarini bostirish va ularning oqibatlariga qarshi kurashishda amaliy yordam ko’rsatish uchun terrorizmga qarshi maxsus bo’linmalarni yuborish;
- stajirovkalar, seminarlar, maslahatlashuvlar va ilmiy-amaliy konferensiyalar orqali tajriba almashish;
- xodimlarni tayyorlash va malakasini oshirish;
- tomonlarning kelishuviga ko’ra, yuqori texnologik va ekologik xavfli obyektlarni jismoniy himoya qilish tizimlari va vositalarini ishlab chiqish bo’yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini birgalikda moliyalashtirish va olib borish;
- terrorizmga qarshi faoliyatni ta’minlash uchun shartnoma asosida maxsus vositalar, texnika va uskunalarni yetkazib berish.<sup>2</sup>

Shuni alohida ta’kidlash joizki, MDH Davlat rahbarlari kengashining 2000 yil 21-iyundagi qarori<sup>3</sup> bilan Mustaqil Davlatlar Hamdo’stligiga a’zo davlatlarning Antiterroristik markazi (MDH ATM) tashkil etilgan. Ushbu ATM MDHga a’zo davlatlarning vakolatli organlarining terrorizm va ekstremizmning boshqa zo’ravonlik ko’rinishlariga qarshi kurashish sohasida o’zaro hamkorligini muvofiqlashtirishni ta’minlovchi doimiy faoliyat yurituvchi ixtisoslashtirilgan tarmoq organi hisoblanadi. Uning shtab-kvartirasi Moskvada (Rossiya Federatsiyasi), Markaziy Osiyo mintaqasi bo’yicha bo’linmasi esa Bishkekda (Qirg’iziston Respublikasi) joylashgan. ATMning huquqiy maqomi, asosiy vazifalari, funksiyalari, tarkibi va faoliyatining tashkiliy asoslari Mustaqil Davlatlar Hamdo’stligiga a’zo davlatlar rahbarlari tomonidan 2000-yil 1-dekabrda qabul qilingan “Antiterroristik markaz to’g’risida”gi nizom<sup>4</sup> bilan belgilanadi. Markazning amalga oshiradigan ishlar rejasi tizimli ravishda MDH davlat rahbarlari kengashida tasdiqlanadi. Shu tartibda, 2022-yil 14-oktabrda Ostona shahrida “MDHga a’zo davlatlarning ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashda 2023-

<sup>2</sup> 1999-yil 4-iyundagi “MDHga a’zo davlatlarning terrorizmga qarshi kurashda hamkorligi to’g’risida”gi bitimi // <https://docs.cntd.ru/document/901824672>

<sup>3</sup> MDH Davlat rahbarlari kengashining 2000 yil 21-iyundagi qarori // <https://www.cisatc.org/188>

<sup>4</sup> “Antiterroristik markaz to’g’risida”gi nizom // <https://www.cisatc.org/189>

**2025-yillarga mo'ljallangan hamkorlik dasturi"**<sup>5</sup> tasdiqlangan. Unda a'zo davlatlarning terrorizm va ekstremizga qarshi tashkiliy-huquqiy jihatdan hamkorlikni mustahkamlash va rivojlantirish, bu turdagi jinoyatlarni to'xtatish, aniqlash, tergov qilish, oldini olish bo'yicha birgalikda tadbirlar ishlab chiqish va o'tkazish, a'zo davlatlarda terrorizm va ekstremizga qarshi axborot-tahliliy va ilmiy faoliyatni ta'minlash, bu sohada kadrlar tayyorlashni rivojlantirish bo'yicha ishlar rejasi belgilangan. Masalan, reja bo'yicha 2024-yilda O'zbekiston Respublikasi hududida mazkur sohaga oid amaliy tadbir tashkil etilishi belgilangan.

Bundan tashqari, MDH doirasida bugunga qadar terrorizm va ekstremizmga qarshi kurash sohasida quyidagi bir qator normativ-huquqiy hujjatlar imzolangan: MDHga a'zo davlatlarning 2007 yil 5-oktyabrdagi **"Jinoiy daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risida"**gi shartnomasi<sup>6</sup>, 2015-yil 16-oktabrdagi **"Hamdo'stlikka a'zo davlatlarning hududlarida qo'shma tergov guruhlarini tashkil etish va faoliyat yuritish tartibi to'g'risida"**gi bitim<sup>7</sup>, 2017-yil 3-noyabrdagi **"Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi doirasida terrorizmga va ekstremizmning boshqa zo'rvonlik ko'rinishlariga, shuningdek ularni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasida axborot almashish to'g'risida"**gi bitim.<sup>8</sup>

**Shanxay Hamkorlik Tashkiloti.** Terrorizm va ekstremizga qarshi kurashish, bu sohadagi hamkorlik masalalari 2001-yil 15-iyunda tashkil etilgan ushbu tashkilotning asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi. 2002 yil 7-iyunda Sankt-Peterburgda ShHTga a'zo davlatlar rahbarlari kengashining majlisida ShHTning doimiy faoliyat yurituvchi organi sifatida belgilangan "Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi to'g'risida"gi bitim imzolandi. Ushbu Mintaqaviy aksilterror tuzilmasining (MATT) shtab-kvartirasi Toshkent shahrida joylashgan.

MATTning asosiy vazifalari va funksiyalari quyidagilardan iborat:

- ShHTning tegishli tuzilmalari uchun terrorizmga qarshi kurash bo'yicha hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;
- tomonlarning vakolatli organlariga terrorizmga qarshi kurashda yordam berish;
- terrorizmga qarshi kurash masalalari bo'yicha tomonlardan olingan ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish;
- xalqaro terroristik tashkilotlar to'g'risidagi ma'lumotlar bazasini shakllantirish;

<sup>5</sup> "MDHga a'zo davlatlarning ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashda 2023-2025-yillarga mo'ljallangan hamkorlik dasturi"// <https://www.cisatc.org/109777897.pdf>

<sup>6</sup> "Jinoiy daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risida"gi shartnomasi// <http://nac.gov.ru/zakonodatelstvo/mezhdunarodnye-pravovye-akty/dogovor-gosudarstv-uchastnikov.html>

<sup>7</sup> "Hamdo'stlikka a'zo davlatlarning hududlarida qo'shma tergov guruhlarini tashkil etish va faoliyat yuritish tartibi to'g'risida"gi bitim// <https://docs.cntd.ru/document/420385655>

<sup>8</sup> Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi doirasida terrorizmga va ekstremizmning boshqa zo'rvonlik ko'rinishlariga, shuningdek ularni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasida axborot almashish to'g'risida"gi bitim// <https://www.cisatc.org/4164788.doc>

- tomonlar vakolatli organlarining so‘roviga ko‘ra ma’lumotlarni taqdim etish;
- terrorizmga qarshi qo‘mondonlik punkti va tezkor-taktik o‘quv mashg‘ulotlarini tayyorlash va o‘tkazishda ko‘maklashish (tomonlarning iltimosiga ko‘ra);
- terrorizmga qarshi kurash bo‘yicha tezkor-qidiruv va boshqa tadbirlarni tayyorlash va o‘tkazishda ko‘maklashish (tomonlarning iltimosiga ko‘ra);
- terrorchilik yoki ekstremistik jinoyat sodir etgan shaxslarni xalqaro qidiruvga berishda yordam ko‘rsatish.
- terrorizmga qarshi kurashga taalluqli xalqaro huquqiy hujjatlarni tayyorlashda ishtirok etish va boshqalar.

MATT tashkil etilganidan buyon tashkilot rivojiga salmoqli hissa qo‘shdi, uning tayanch ustuni va mintaqaviy terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurash bo‘yicha muvofiqlashtiruvchi markazga aylandi. MATT normalarini ishlab chiqish doirasida ShHTning terrorizm va ekstremizmga qarshi kurash bo‘yicha konvensiyalari ishlab chiqildi va a‘zo davlatlar rahbarlari kengashi tomonidan ma‘qullandi, shuningdek amaliy masalalarni tartibga soluvchi qarorlar qabul qilindi. ShHTga a‘zo davlatlarning vakolatli organlarining xavfsizlik sohasidagi hamkorligi hamda terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurashda ularning o‘zaro hamkorligi shakllari, mexanizmlari va vositalarini o‘z ichiga oladi. A‘zo davlatlar hududida 2006-yildan buyon har yili terrorizmga qarshi qo‘shma o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazilib kelinadi, 2013-yildan boshlab esa ShHTga a‘zo davlatlar vakolatli organlarining chegara xizmatlari ShHTga a‘zo davlatlar chegaralarining tashqi va ichki uchastkalarida qo‘shma chegara operatsiyalarini o‘tkazmoqda. Shuningdek, 2013-yildan buyon faoliyat yuritib kelayotgan ShHTga a‘zo davlatlarning vakolatli organlari ekspertlari va MATT Ijroiya qo‘mitasi vakillaridan iborat **Qo‘shma ishchi guruhi** doirasida terrorchilar va ekstremistlarning internet tarmog‘idan foydalanishining oldini olish bo‘yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bundan tashqari, ushbu sohada kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirishni muvofiqlashtirish bo‘yicha ham tizimli asosda ishlar olib borilmoqda.